



UDK:351/320(575.1)

Islomiddin ABRAROV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi, PhD
E-mail: AbRARovisomiddin@gmail.com

Siyosiy fanlari doktori M.Musayev taqrizi asosida

YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANDIRISH VA UNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

Аннотация

Mazkur maqolada yoshlarda mafkuraviy immunitetini rivojlantirish va uning istiqboldagi vazifalari to'g'risidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek maqolada bugungi globallashtirish sharoitida dunyo miqyosida g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan bir sharoitida ma'naviy tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, g'ayriinsoniy g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm ta'siriga tushib qolish holatlari hamon uchrayotganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mafkura, g'oya, yoshlar, tahdid, strategiya, davlat, qadriyat, jinoyatchilik, ekstremizm.

РАЗВИТИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ И ЕГО ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЗАДАЧИ

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения анализируются мнения о развитии идеологического иммунитета у молодежи и его задачах на будущее. Также в статье говорится, что в современных условиях глобализации, когда идеологическая борьба в мировом масштабе обостряется, духовные угрозы усиливаются. Особенно в настоящее время среди молодежи все еще встречаются случаи пренебрежения национальными ценностями, подверженности влиянию бесчеловечных идей, попадания под влияние преступности и экстремизма.

Ключевые слова: идеология, идея, молодежь, угроза, стратегия, государство, ценность, преступность, экстремизм.

DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH AND ITS PROMISING TASKS

Annotation

In this article, opinions on developing ideological immunity in young people and its future tasks are analyzed from a scientific perspective. Also, the article states that in the current conditions of globalization, when ideological struggles are intensifying on a global scale, spiritual threats are intensifying. Especially nowadays, there are still cases among young people of neglecting national values, falling under the influence of inhuman ideas, falling under the influence of crime and extremism.

Key words: Ideology, idea, youth, threat, strategy, state, value, crime, extremism.

Kirish. Bugungi globallashtirish sharoitida dunyo miqyosida g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan bir sharoitida ma'naviy tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, g'ayriinsoniy g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm ta'siriga tushib qolish holatlari hamon uchramoqda. O'z navbatida mazkur holat, mamlakatimizda ma'naviy-mafkuraviy ishlarining ta'sirchanligini oshirish, jamiyatdagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurash olib borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlarga to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashtirish jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda"[1]. Zero, bugungi kunda dunyo miqyosida turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqatilyotganligi jahonda madaniyat niqobi ostida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar kuchayishiga zamin yaratmoqda.

Dunyo miqyosida globallashtirishning shiddatli tus olishi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga oid muammolarni yanada dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, tobora avj olayotgan mafkuraviy xurujlar, yot g'oyalar ta'sirida inson

qalbi va ongini zabt etishga bo'lgan harakat kengayib borayotganini kuzatish mumkin[2]. Binobarin, shiddat bilan avj olayotgan globallashtirishning muhim xususiyatlaridan biri insonlarning ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayotganligini namoyon etmoqda. Shu o'rinda, mazkur holat, tinchlik, barqarorlikni saqlashda dunyo afkor ommasidan muntazam ogoh bo'lishni taqozo etmoqda. Insoniyat mutlaqo o'zgacha muhit, yangicha talab va ilgari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar quchaygan bir sharoitda yashashga to'g'ri qilyotir.

Bugungi kunda dunyoda vujudga kelayotgan taxlikali va vaziyat globallashtirish shiddati nafaqat mafkura sohasiga balki, xalqaro munosabatlar, iqtisod, siyosat, ijtimoiy, harbiy sohalarga ham ta'sir ko'rsatyapti. Buzg'unchi mafkuralar yoshlarni o'z domiga tortib, ularni qalbi va ongiga razil va tuban g'oyalarni singdirishga intilyotganligini anglash qiyin emas.

Dunyoning turli mintaq va davlatlarida kechayotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganini ko'rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik,

mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

Globalashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olayotgani muntazam ogoh, sezgir va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Dunyo miqyosida yuz berayotgan eng xavfli yovuz illat mafkuraviy xurujlar o'ziga bir davlat fuqarolarining qalbi va ongini zabt etish, mafkurasidan voz kechtirish orqali "o'zgacha" mafkuralarni ongiga singdirishda namoyon bo'lmoqda. Bugun shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi qator "ta'limotlar" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va asriy qadriyatlarini zimdan emirishga zamin yaratilmoqda. Yovuzlik, jaholat insonni va jamiyatni tubanlikka boshlovchi, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undovchi mafkuraviy xurujlar doimo insoniyat uchun xatarli hisoblangan. Insonparvarlik tamoyiliga zid bo'lgan, jamiyatda parokandalikni vujudga keltirish orqali bir millatni boshqasidan ustun qo'yadigan, oliy irq da'vosida boshqa xalqlarni qirg'in qilishga chaqiradigan yovuz g'oyalar mafkuraviy xurujlardir[3].

Shu o'rinda bu xurujlar muayyan kuchlar tomonidan kishilar qalbi va ongiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni teran anglagan holda g'oyaviy-mafkuraviy, ruhiy ta'sir o'tkazishda noan'anaviy va noxolis usullardan foydalanib, o'zlarining g'arazli maqsadlarini "puxta" rejalar asosida amalga oshirishini anglash lozim. Mafkuraviy xurujlar shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo'naltiriladi, uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzi buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi. O'z navbatida, mafkuraviy xurujlar inson, jamiyat tushunchalarini doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog'liq global masalalarni ham qamrab oladi. Ushbu jihati bilan u hozirgacha mavjud bo'lib kelgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzg'unchisi ekanini anglash joiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi paytda dunyo jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar, xalqaro terrorchilik, ekstremizm va jaholatparastlik, giyohvandlik, odam savdosi ham buzg'unchi g'oyalarga asoslangan. Buzg'unchi g'oyalar tasnifidan o'rin olgan yovuz qarashlar turli tarqalish doirasi va ta'sir kuchiga ega. Ayniqsa, dunyoda bo'layotgan turli voqeahodisalar, tez o'zgarayotgan bugungi kunda hayot jarayoni ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin. Mana shunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu xaqda fikr yuritganda Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu – zamon talabi"[4],-deya ta'kidlagan edi. Aynan, dunyo miqyosida mafkuraviy kurash eng katta ta'sirchan kulol sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, globalashuv jarayoni dastlab xalqaro iqtisod hamda axborot va kommunikatsiya sohalarida namoyon bo'lgan bo'lsa, bugun o'zining beto'xtov rivojlanishi natijasida dunyo mamlakatlari taraqqiyotining deyarli barcha muhim jabhalarini qamrab olmoqda.

Tobora avj olayotgan globalashuv shiddati dunyoda keskin kurash va raqobatni hukm surishiga, manfaatlar to'qnashuvini kuchayishiga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, mazkur jarayonlar dunyo afkor ommasiga uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotganligini anglash qiyin emas. Ayniqsa,

mazkur holatda millatni mentaliteti, milliy o'zligi, ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib borayotganligi kuzatish mumkin. Shu bilan birga, yoshlar ongiga xudbinlik, faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar va ustamonlik bilan singdirilayotganligi bu borada teran fikrlashni taqozo etadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida terrorism, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib borayotganligi ba'zi hududlarda atayin beqarorlik holatlarini yuzaga keltirish orqali norozilik kayfiyatini avj oldirayotganini anglash qiyin emas. Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "hozirgi globalashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g'oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo'lmoqda"[5]. Binobarin, dunyo jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan g'oyaviy-mafkuraviy hurujlarga qarshi muntazam ogoh, sezgir va hushyor bo'lish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugun kunda barchaga ma'lumki, xalqaro terrorism, radikalizm, mutaassiblik, ekstremizm kabi muammolar chegapa bilmasligi dunyo jamoatchiligida jiddiy tashvish uyg'otayotgani bejiz emas. Ayniqsa, dunyo miqyosida ekstremizm, xalqaro terrorismga qarshi kurashda jaholatga qarshi ma'rifatni targ'ib etish g'oyasi doimo Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro miqyosidagi nutq va ma'puzalarining bosh mavzusiga aylanib bopmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning o'z ma'ruzalarida jahon hamjamiyati oldida tupgan dolzabr muammolarini bartaraf etish borasida davlatimiz tomonidan amalga oshirib kelinayotgan tashabbuslarini alohida ta'kidlash lozim. Bu sohadagi tashabbus va ilg'op g'oyalar bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan dunyo miqyosida ham ilgari surilmoqda. Hozirgi nozik va ayni paytda, o'ta murakkab sharoitda mafkuraviy tahdidlarga qarshi ma'rifat bilan kurashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jaholatga griftop etuvchi ekstremizm, xalqaro terrorism va mutaassiblikka qarshi kurashda ma'rifatni targ'ib etish g'oyasi bugungi kunda dunyo miqyosida bosh mavzuga aylanib ulgurd. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilar ekan: «Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga bapham berishga ko'maklashishdan ibopat. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror tortirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz»[6], deya alohida ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 26-martda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori imzolangan edi. Mazkur xujjatda qayd etilishicha, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarga qaramasdan jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni yangilash jarayonlarida hali ham ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samaradorligiga to'sqinlik qiladigan qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganligi ko'rsatib o'tilgan edi. Shu bois, mazkur qarorda mamlakatimizda ma'naviy -ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi:

Tahlil va natijalar. Yaxshilik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan "Milliy tiklanish - milliy yuksalish

yuksalishi" g'oyasini keng targ'ib qilish orqali sog'lom dunyoqarash va ijodkorlikni umumxalq harakatiga aylantirish; oilada, ta'lim muassasalarida va jamoalarda ma'naviy ta'lim a'zozligini ta'minlash;

targ'ibot va tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, sohadagi ilmiy-uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan muntazam monitoring tizimini joriy etish;

xalq taqdiriga befarqlik, mahalliychilik, qabilaviylik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga mensimaslik va yoshlar tarbiyasida mas'uliyatsizlik kabi illatlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet va jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, nashriyot va nashriyot, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy -axloqiy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining barqarorligiga erishish;

Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, giyohvand moddalar savdosi va boshqa tahdidlarga qarshi samarali mafkuraviy kurash, shuningdek, bu boradagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish[7] dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Bugun kunda dunyo bo'yicha xalqlarni o'zligidan yo'qotish uchun "puxta" ishlangan mafkura maydonida olib borilayotgan "Axborot urushi bu aqllar kurashi" ketmoqda. Ayniqsa, globallashuv shiddatining tobora avj olishi axborotni qudratli qurolga aylantirdi. Mazkur qurol yordamida harbiy kuchlar orqali amalga oshirib bo'lmaydigan maqsadlarga bevosita erishish mumkin. Axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanish maqsadida ayrim yetakchi davlatlar o'zga mamlakat aholisi ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Jahonda shiddat bilan o'zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar jonajon Vatanimiz xavfsizligini, el-yurtimizning osoyishta hayotini ta'minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishimizni taqozo etmoqda"[8]. Chunki, zamonaviy axborot maydonidagi harakatlarning jadallashuvi oqibatida mafkuraviy

ta'sir nihoyatda o'tkir qurolga aylanishi natijasida turli xil siyosiy kuchlar o'z manfaat va maqsadlari yo'lida g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan foydalanishga intilayotganligi afsuski, xatarlidir.

Shu o'rinda, globallashuv jarayonida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy xavfsizlik masalasi mafkura sohasida millatning mavjudligini belgilovchi vazifa hisoblanadi. Ma'naviy xavfsizlik axloqiy qadriyatlar orqali jamiyat va uning madaniyatini saqlashga qaratilgan yaxlit ijtimoiy tizimlar faoliyatini namoyon etadi. Bu soha muntazam ravishda muolajaga muhtoj, deb o'ylaymiz. Shunday ekan, mazkur jarayonlarni ilmiy nuqtai-nazardan o'rganmasdan, uning nazariy usulbarini tatbiq etmasdan mudom shakllanib kelayotgan jamiyat qarashlari yaxlitligini va islohotlar samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi[9]. Zero, dunyo tarixiga nazar solsak, har bir xalqni avvalo, ma'naviy birlashuvi, o'zining milliy g'oyasi bilan yuksalganligi hech kimga sir emas.

Xulosa va takliflar. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan dadil borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi alohida ahamiyatga ega. Shu o'rinda, o'zligini anglagan, sog'lom dunyoqarashga ega millat o'zini buyuk va shonli o'tmishini teran anglagan holda o'z millatini ulug'laydi. O'zining xalqi va millati manfaatlarini himoya qilish orqali uni boshqalar manfaati bilan almashirmaydi, unga sadoqati kuchli bo'ladi. Aynan, mazkur omillar o'zining millat vakili sifatida chuqur anglagan holda undan faxrlanish va g'ururlanish tuyg'usini yuksaltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezigulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan"[10]. Binobarin, mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda mamlakatimizning milliy g'oyasi har birimizga kelajakka ishonch, madad, kuch-g'ayrat, shijoat berib xalqimizni va millatimizni ulug'vor va bunyodkor ishlarga, Vatan, millat, mustaqillik himoyasi yo'lida birlashtirishga safarbar etishini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashimiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Шавкат Мирзиёев: Жамият ҳаётининг танаси иқтисодийёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавийдир. https://uz.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451
2. Мусаев. М. Миллий ғоя халқни бирлаштирувчи ва ҳаракатга келтирувчи куч. Янги Ўзбекистон газетаси. № 109 (898), 2023 йил 4 июнь, якшанба.
3. Мусаев.М. Миллий ғоя халқни бирлаштирувчи ва ҳаракатга келтирувчи куч. Янги Ўзбекистон газетаси. № 109 (898), 2023 йил 4 июнь, якшанба.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси <http://uz.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>
5. Мирзаёев М.Янги Ўзбекистон тараққийёт стратегияси.Учинчи нашри.–Тошкент:«O'zbekiston» нашриёти.2021.Б-263.
6. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир (2-жилд).- Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018.- Б.254.
7. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
9. Алмардонов.Т. Шу вақтга қадар жамиятнинг маънавий жараёнлари муайян яхлит тизимга бўйсундирилмаган эди. <https://xs.uz/uzkr/post/shu-vaqtga-qadar-zhamiyatning-manaviy-zharayonlari-muajyan-yakhlit-tizimga-bojsundirilmagani-edi-professor-tolqin-alimardonov-bilan-suhbat>
10. Шавкат Мирзиёев: Жамият ҳаётининг танаси иқтисодийёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавийдир. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>